


# BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI

Научный вестник Бухарского государственного университета  
Scientific reports of Bukhara State University

3/2023

E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



@buxdu\_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz



3/2023

<b>MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS</b>		
<b>ANIQ VA TABIIY FANLAR *** EXACT AND NATURAL SCIENCES *** ТОЧНЫЕ И ЕСТЕСТВЕННЫЕ НАУКИ</b>		
<b>Norqulov J.F., Azimov R.B., Amirov A.A.</b>	G'ildirak tishlariga ta'sir qiladigan eguvchi kuchlanishni tish yuzasi qattiqligiga bog'liqligini o'rganish va takomillashtirish	3
<b>Tukhtaev B.J., Kanokova Sh.Z., Xudoyberdiyeva Sh.A., Olimov X.K.</b>	Анализ средних поперечных импульсов частиц при столкновении Au+Au и Pb+Pb в сфере энергии $(s_{nn})^{1/2}=62-5020$ GeV	8
<b>Masharipov S. I.</b>	Hardy Littlewood Polya relation for nonlinear reflections	12
<b>Umarov S.H., Hasanov N.Z., Hallokov F.K., Narzullaeva Z.M.</b>	Effect of pressure and thermal expansion on the optical absorption edge and the deformation potential model in TLGAS <sub>2</sub>	16
<b>Xayitova X.G'.</b>	Ikkinchi tartibli matritsaviy model operatorning ba'zi spektral xossalari	23
<b>Aliyeva T.A.</b>	Features of the natural growth development of urban population in Nakhchivan economic region	29
<b>TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ</b>		
<b>Asadov T.H.</b>	O'zbek tilidagi murakkab tarkibli ayrim affikslarning tabiati xususida (ravishga nisbat beriladigan affikslar misolida)	37
<b>Azimov I.M.</b>	Miyon Buzrukning adabiy til, istiloh masalalariga munosabati	42
<b>Bozorova R.Sh.</b>	Nemis tilida gidronimlarning kelib chiqish tarixi	48
<b>Davlatova M.H.</b>	Ikkilamchi predikat bilan ifodalanadigan rezultativ tuzilmalar turlari xususida	55
<b>Fayzullayev O.M., Ergasheva G.R.</b>	Lingvomadaniyatshunoslikning fan sifatida shakllanishi, rivojlanish bosqichi va sohani o'rganishga doir yondashuvlar	60
<b>Shirinova M.Sh., Rzayeva Ch.V.</b>	Kinofilmlar tilida evfemizmlarning tutgan o'rni va ahamiyati	64
<b>Хидирова Г.Х.</b>	Замонавий терминологияда терминнинг объектив таърифи, тавсифи ва чегарасини ажратиш муаммолари	69
<b>Hamroyeva N.N.</b>	Shaxslararo muloqot jarayonida dialogik diskursning o'rni va kommunikativ strategiyalar	76
<b>Ismoilova D.R.</b>	Language crimes in English language	81
<b>Narzullayeva F.O.</b>	Tilning nominativ va ekspressiv funksiyalarining o'rganilishi	85
<b>Rabieva M.G'.</b>	Olamning kontseptual manzarasi kognitiv tajribaning muhim komponenti sifatida	90
<b>Rasulov Z.I., Sharopov Sh.Sh.</b>	Kooperatsiya tamoyilining pragmalingvistikadagi o'rni	94
<b>Uzakova L.A.</b>	O'zbek va ingliz tillarida to'y bilan bog'liq leksik birliklarning lingvokulturologik tadqiqi: ingliz to'y marosimlarini o'rganish	99
<b>Xolova Sh.D.</b>	"Avoir" fe'li ishtirokidagi inson his-tuyg'ularini ifoda etuvchi frazemalar tarjimasining o'ziga xosliklari	103
<b>Xudoyev S.S.</b>	O'zbek va nemis topishmoqlarida metaforik birliklarning antropotsentrik tadqiqi	108
<b>Xusainova Z.Y.</b>	Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)da stemming jarayoni tavsifi	113
<b>Yusupova D.Y.</b>	Euphemistic findings of the poet Halima Khudoiberdiyeva	120

SHAXSLARARO MULOQOT JARAYONIDA DIALOGIK DISKURSNING O'RNI VA  
KOMMUNIKATIV STRATEGIYALAR

*Hamroyeva Nafisa Nizomiddinovna,*  
*Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi, PhD*  
[n.n.hamroeva@buxdu.uz](mailto:n.n.hamroeva@buxdu.uz)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada diskurs va uning xususiyatlari, nutqiy muloqot tizimiga oid tushunchalar tahlil etiladi. Maqolada shuningdek, muloqot strategiyalari haqida ham so'z boradi. Muloqot strategiyasi – bu muayyan muloqot interaktsiyasida umumiy lisoniy/lisoniy bo'lmagan global masalaning yechimi uchun so'zlovchi o'z nutqiy faoliyatini amalga oshirishning ijodiy rejasini tuzib olishidir, bu moslashuvchan mexanizm muloqot jarayonida doimiy tuzatishlarga uchraydi. Kommunikativ strategiyalarni tahlil etish jarayonida tavsifiy va struktur metodlardan foydalanildi. Lug'aviy ma'nosi bahs, munozara bo'lgan diskursning turlari, dialogning ko'rinishlari tahlil etildi. Nutqiy muloqot jarayonining samarali kechish tamoyillari keltirib o'tildi. Nutq murakkab kommunikativ hodisa, bilimlar iyerarxiyasining murakkab tizimi, shu jumladan unda qo'shimcha ravishda ekstralingvistik omillar (dunyoni bilish, fikrlar, munosabatlar, odamlarning maqsadlari) ham mavjud bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** nutq akti, kontakti o'rnatish, intensiya, kommunikativ strategiya, semantik mazmun, diskurs, dialog tipologiya, nutqiy faoliyat.

**Аннотация.** В данной статье анализируются дискурс и его особенности, понятия системы речевого общения. В статье также рассматриваются коммуникативные стратегии. Коммуникативная стратегия представляет собой творческий план речевой деятельности говорящего по решению общеязыковой/неязыковой глобальной задачи в конкретном коммуникативном взаимодействии, этот гибкий механизм подвергается постоянной корректировке в процессе общения. При анализе коммуникативных стратегий использовались описательный и структурный методы. Проанализированы виды дискурса, лексическое значение которого – спор, полемика, формы диалога. Были упомянуты принципы эффективного процесса речевого общения. Речь представляет собой сложное коммуникативное явление, сложную систему иерархий знаний, включающую экстралингвистические факторы (познание мира, мысли, установки, цели людей).

**Ключевые слова:** речевой акт, установление контакта, интенция, коммуникативная стратегия, смысловое содержание, дискурс, типология диалога, речевая деятельность.

**Annotation.** This article analyzes the discourse and its features, the concepts of the speech communication system. The article also discusses communication strategies. A communication strategy is a creative plan of the speaker's speech activity for the solution of a general linguistic/non-linguistic global problem in a specific communication interaction, this flexible mechanism undergoes constant adjustments during the communication process. Descriptive and structural methods were used in the analysis of communicative strategies. The types of discourse, whose lexical meaning is argument, debate, and the forms of dialogue were analyzed. The principles of effective speech communication process were mentioned. Speech is a complex communicative phenomenon, a complex system of knowledge hierarchies, including extralinguistic factors (knowledge of the world, thoughts, attitudes, people's goals).

**Key words:** speech act, establishing contact, intention, communicative strategy, semantic content, discourse, dialogue typology, speech activity.

**Kirish.** Inson dunyoga kelar ekan, u rivojlanadi, shaxs sifatida shakllanadi. Bu jarayonda u doim nutqiy muloqotda bo'ladi. Muloqot shaxslararo munosabatlar uchun o'ziga xos ehtiyoj sifatida suv va havodek ahamiyatga ega. Muloqotni insonlar o'rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqib, rivojlanishining ko'p qirrali jarayoni sifatida baholash mumkin. Uning asosiy vazifasi axborot ayriboshlash ekan, bunda kommunikativ jihat hisobga olinadi. Insonlar nutqiy muloqotga kirishishda, dastavval, tildan foydalanadilar.

Ushbu maqolada pragmalingsvistikaning asosiy tushunchalaridan biri dialogik diskursning shaxslararo muloqot jarayonida tutgan o'rni va kommunikativ strategiyalarga oydinlik kiritiladi. Dialogik diskursning

lisoniy reprezentatsiyadan (vakillikdan) tashqari bir qator ekstralingvistik omillarni o'z ichiga olishini tahlil etish oldimizga qo'yilgan vazifadir.

**Tadqiqot metodi.** Dialogik diskurs bugungi kun tilshunosligida ma'lum bir masalaning yechimini topish uchun izchillikda o'sib borayotgan, fikr almashinuvi asosidagi muloqotga tayangan, ikki (yoki undan ortiq) kommunikantlarning o'zaro nutqiy hamkorligidir. Dialogik diskurs lisoniy reprezentatsiyadan (vakillikdan) tashqari bir qator ekstralingvistik omillarni ham o'z ichiga oladi. Masalan, maqsad, fikr, muloqot ishtirokchilarining ko'rsatmalari, yondosh bilimlar va hokazo. Dialogik diskursning asosiy sifatlaridan biri, umumiy kommunikativ intensiya (niyat)ning, ya'ni bosh maqsadning mavjudligi hisoblanadi.

“Muloqotning yana bir jihati munosabatga kirishuvchilarning o'zaro birgalikdagi harakati – nutq jarayonida faqat so'zlar bilan emas, balki harakatlar bilan ham ifodalanishdan iborat. Masalan, munosabatga kirishar ekanmiz, u bizni qoniqtirsa, imo-ishora bilan muloqotda bo'lamiz. Munosabatning keyingi jihati muloqotga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishlaridir. Masalan, biz bir kishi bilan muloqotga kirishishdan avval uni hurmat qilib yoki mensimasdan munosabatda bo'lishimiz mumkin. Shuning uchun ham muloqot jarayonining kommunikativ (axborot uzatish), interaktiv (o'zaro birgalikda harakat qilish) va perseptiv (o'zaro birgalikda idrok etish) jihatlari ajratiladi” [3, 5]. Bundan ko'rinib turibdiki, muloqot – bu insonlarning hamkorlikdagi faoliyatiga bo'lgan ehtiyoji bo'lib, munosabatlar, o'zaro ta'sirlar, ma'lumot hamda axborot almashishga doir ularning birgalikdagi faoliyatidir. Demak, muloqot birgalikdagi harakat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan, aloqa almashish, bir-biriga ta'sir etish, boshqalarni tushinish, odamlar o'rtasida kontakt o'rnatish va rivojlantirish jarayoni. Muloqot barcha tirik jonzotlarga xosdir. Masalan, hayvonlarda boshqa tirik jonzotni ma'lum harakatga chorlash, u yoki bu harakatni amalga oshirmaslik kerakligi haqidagi ogohlantirish muloqot maqsadi bo'lib xizmat qiladi. Yoki ona o'z tovushi yoxud harakati bilan bolasini xavfdan ogoh qilishi mumkin. Ammo muloqot insonlar orasida eng takomillashgan darajaga ega bo'ladi, albatta, bu jarayon nutq vositasida anglanadi.

**Muhokama.** Nutqiy muloqotning eng kichik amaliy ko'rinishi nutqiy akt sanaladi. Uni nutq muomalasi qoidalari, tartibiga bo'ysunadigan maqsadli nutqiy harakat sifatida tushunishimiz darkor. Nutq aktlarining umumiy jamlanmasi nutqiy faoliyatni tashkil qiladi. Mazkur nazariyaning asosiy tadqiqot obyektiga so'zlovchi, adresat va ularning o'zaro munosabati, muloqot vaziyati bilan aloqador qator masalalar kiradi. Xususan, tilga falsafiy yondashuvda til nutqning amaldagi ko'rinishi va uning reallik bilan aloqadorligini aniqlash uchun xizmat qiladigan vositadir.

O'zaro munosabatga kirishuvchi unsurlarning yaxlit butunligi mukammal tizim bo'la oladi. Muloqot sistemasining unsurlaridan biri shaxs unsuri hisoblanadi. Shaxs muloqot jarayonida murakkab tarkibli sistema sifatida yuzaga chiqadi. “U muloqot tizimida vaziyat unsuri bilan birga, asosiy o'rinni egallaydi. Zero, bu ikki unsur ushbu tizimda dominantlik qiladi. Ammo shaxs vaziyatdan foydalanadi, lekin vaziyat shaxsning muloqot intensiyasiga (maqsadiga) ta'sir qilmasa-da, intensiyaga erishish usulini o'ziga moslashtirishini talab etadi. Shaxs muloqotning bog'lovchi vositasi, unsuri bo'lgan lisoniy vositalarni tanlash va o'rinli ishlata olish uchun quyidagi belgilarga ega bo'lishi zarur: a) lisoniy qobiliyat; b) kognitiv qobiliyat; v) muloqot qobiliyati. Shaxsning diskursiv faoliyati pragmalingsvistik tahlillar markazida turadi. Shu asosda nutqiy sistemaning unsurlari uch xil – lisoniy, shaxsiy va pragmatik tabiatli bo'lishi haqidagi xulosaga kelish mumkin” [2, 56].

Nutqiy muloqot ikki (yoki undan ortiq) kommunikatorning nutqdagi o'zaro ta'siri bo'lib, zamonaviy pragmalingsvistikada ma'lum bir aloqa maqsadini hal qilish uchun suhbatdoshlar tomonidan olib boriladigan fikrlarning dinamik ketma-ketligi sifatida talqin etiladi. Nutqiy muloqot kommunikantning maqsadi, nutq ishtirokchilarining fikri, kommunikatorlarning munosabati kabi ekstralingvistik omillarni o'z ichiga oladi. Uning asosiy xususiyatlaridan biri bu – umumiy kommunikativ niyat va bosh maqsadning mavjudligidir. Bosh maqsadni amalga oshirish ikki (yoki undan ortiq) suhbatdoshning sa'y-harakatlari bilan bog'liq bo'lib, ularning har biri umumiy aloqa muammosini hal qilishga hissa qo'shadi. Nutqiy muloqotning rivojlanishi (davomiyligi) har ikkala suhbatdoshga bog'liq. Agar ma'ruzachi o'zining boshlang'ich so'zi bilan muloqotning kommunikativ yo'nalishini belgilab qo'ysa, unda uning nutqi aloqa aktining teng ishtirokchisi bo'lgan suhbatdoshning javobidan so'ng navbat oladi.

Bosh maqsad muloqotning umumiy maqsadini yechishga o'z hissalarini qo'shayotgan ikki (yoki undan ortiq) suhbatdoshning harakatlari natijasida amalga oshiriladi. Agar so'zlovchi o'zining tashabbuskor replikasi bilan muloqotga kommunikativ yo'nalish ulashsa, unda uning kuchayishi kommunikativ harakatning teng ishtirokchisi bo'lgan hamsuhbatining javob replikasidan so'ng sodir bo'ladi, ya'ni dialogik diskursning rivoji ikkala suhbatdoshga teng darajada bog'liq bo'ladi.

Tilshunoslik fanida diskurs atamasiga aloqador fikrlar XX asrning 50-yillarida shakllandi. Shu davrda diskurs hodisasi ogʻzaki nutqqa aloqador ekanligi, jumladan, ularning nutq jarayonida undalma, kirish soʻz, kirish birikmalar bilan ham ifodalanish holatlari “murakkab sintaktik qurilma” sifatida baholanishiga asos boʻla oladigan fikrlar ilgari surilgan [9, 356]. 1966-yilda tilshunos R.Godelning “diskurs atamasining tilshunoslikka oid tadqiqotlarida qoʻllanilishi til va nutq hodisalari haqida aniq xulosa chiqarishga shubha tugʻdirishi mumkin” degan fikriga N.A.Slyusarev oʻz izlanishlarida asosli, ilmiy javobni qayd etdi [6, 102]. Bu kabi ilmiy izlanishlar va muammoga nisbatan bildirilgan turlicha qarashlar dialogik diskurs masalasining tilshunoslikda hal qilinish lozim boʻlgan, tadqiqqa muhtoj qirralari mavjud ekanligidan dalolat beradi. Odatda, dialogik diskurs haqida gap ketganda, uni “ikki yoki undan ortiq shaxs oʻrtasidagi suhbat” deb taʼriflanadi.

Tilning ikki – ogʻzaki va yozma jihati har doim bir-biri bilan munosabatda va aloqador. Soʻzlashuv tili yozma adabiy tilning manbaidir. Soʻzlashuv tili dialogik diskurs shaklida namoyon boʻladi va bu diskurs hozirjavoblik asosida tuziladi. Lekin unutmazlik kerakki, soʻzlashuv tili deganda, faqat dialogni tushunmaslik kerak. Albatta, ular bir-biri bilan bogʻliq hodisa, shu bois yozma va ogʻzaki adabiy til tarkibida har ikkala nutq shakli mavjud. L.V.Shcherbaning fikricha, soʻzlashuv nutqi dialogik diskurs shaklida yuz beradi. Bu esa dialogning tabiiyligini taʼminlaydi. Til dialogdagina oʻzining haqiqiy borligʻini namoyon qiladi. Uning ogʻzaki va yozma shakllari taqqoslab koʻrilsa, adabiy tilning asosida monolog yotganligini koʻramiz. L.V.Shcherba adabiy tilning belgilarini qoʻrib chiqib, ularni adabiy tilning turli shakllari va ish yuritish tilining turli koʻrinishlari tarzida ikki guruhga ajratadi va “Har bir shakl va har bir usul hayotiy zarurat talab qiladigan maʼlum vazifani bajarish uchun uning sintaktik xususiyati bilan bogʻliq” deb hisoblaydi. Dialogik diskurs uchun xarakterli boʻlgan xususiyatlardan biri, dialogik birliklarning har biri alohida sintaktik qurilishga ega boʻlgan replikalarga boʻlinishidir. Dialogik replika oʻzining hajmi, suhbatdoshga qaratilganligi, mavzu chegarasining borligi bilan monologdan farq qiladi. Dialogik diskurs birliklarini tashkil etuvchi va uni muloqot birligi sifatida koʻrsatuvchi vositalar: ifodalilik, ekspressivlik, elliptiklik shakllari bilan birga intonatsiyaning oʻz oʻrni bor. Dialogda suhbatdoshning eshitish qobiliyati ham muhim rol oʻynaydi. Maʼlumki, soʻzlovchi oʻz nutqida turli xil maʼnolarni, jumladan, emotsionallikni ifodalaydi. Bu ottenkalar intonasiya yordamidagina toʻliq aniqlanadi. Har qanday subektiv xarakterdagi fikr emotsionallikni aks ettiradi. Fikrning emotsional tomoni katta maʼno ahamiyatiga egadir.

Dialogik diskursda bosh maqsaddan tashqari savol-javob replikalaridan iborat umumiy mavzuning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bosh intensiya (niyat) va umumiy mavzu muayyan strategiyani amalga oshirish uchun muloqot ishtirokchilarning nutqiy holatlari (pozitsiyasi)ni izchillik bilan bogʻlab turadi. Bosh maqsad yoki umumiy mavzu taʼsirida barcha nutq birliklari diskurs tarkibida muloqotning umumiy maqsadini amalga oshirish nuqtayi nazaridan maʼlum ahamiyatga ega boʻladi: ular aniq strategik va taktik vazifalarni yechishga yordam beradi.

Muloqot strategiyasi – soʻzlovchining nutqiy faoliyatni amalga oshirishning ijodiy rejasini tuzib olishidir. Unda muayyan muloqot interaksiyasida umumiy lisoniy/lisoniy boʻlmagan bosh masala oʻz yechimini topadi. Bu moslashuvchan mexanizm muloqot jarayonida doimiy tuzatishlarga uchraydi, samarali yechim topish imkonlarining izlanishida boʻladi. Umumiy koʻrinishda strategiya – bu qoʻyilgan masalalar yechimining samarali yoʻllarini vaziyatga mos ravishda oʻzgaruvchan va muayyan joydan (lokal) boshqarish usulida nazorat qilinuvchi, kognitiv rejaning tavsifidir. Strategiyalar “tanlovga” bevosita bogʻliq boʻlib, kommunikantga qoʻyilgan masalalarni eng yaxshi tarzda yechish imkonini beradi. Muloqot maqsadiga eng maqbul yoʻl bilan erishish strategiyaning “yaxshi” koʻrinishi hisoblanadi.

Nutqiy strategiya nutqiy aktlar nazariyasining bir boʻlagi sifatida muloqotning samarali kechishini taʼminlovchi usullardan biri sanaladi. Nutqiy akt jarayonida nutqiy strategik vazifani birgina soʻz yoki gap tashkil qilishi mumkin. Nutqiy akt nazariyasi uchun soʻz yoki gap asosiy birlik emas. U gap yoki soʻzdan tayyor “material” sifatida foydalanmaydi. Unga nutqiy muloqot jarayonida yaratiladigan hodisa sifatida qarash lozim. Nutqiy akt mazmuni toʻliq icha soʻzlovchining muloqot maqsadi bilan bogʻliq boʻladi.

Yuqorida aytib oʻtilganidek, strategiyalar maʼlum taktikalar yordamida amalga oshiriladi. Taktika deb, soʻzlovchi tomonidan koʻzlangan javob harakatlarini yoki oʻzining nutqiy harakatiga javoban tinglovchidan uning noverbal reaksiyasini olish uchun oʻzidagi bor verbal qobiliyatlarni mohirona, dinamik holatda qoʻllay olishi tushuniladi. Modomiki, suhbatlashish qoidasi oʻziga xos shartlar asosida qurilar ekan, dialogik diskurs ijtimoiy-psixologik omillar, jumladan, diskurs ishtirokchilarning mavqeyi, ularning yoshi, jinsi, ularning qiziqishlari asosida yuzaga kelishi tabiiy. Oʻzaro hamkorlik ishtirokchilari mushkul vaziyatda qanday yoʻl tutishlarini aniqlab beruvchi umumiy strategiyaga ega boʻlishlari lozim. Masalan, kommunikantlar umumiy xushmuomalalik strategiyasi bilan harakatlar ketma-ketligiga qandaydir taʼsir oʻtkazishi mumkin. Bu strategiya qaysi semantik mazmuni ifodalash kerak, qaysini esa yoʻq, qaysi nutq aktlari mumkin, qaysisi

mumkin emas, ayniqsa, qaysi stilistik mazmuni ifodalash ma'qulroq ekanligini aniqlab beradi, ya'ni nutq strategiyalari, odatda, semantik, pragmatik va stilistik tanlovning lokal imkoniyatlarini cheklab qo'yadi.

Strategiyalar samaralilik xususiyatiga ko'ra kuchli, kuchsiz, moslashuvchanligi bilan o'zaro farqlanadi. "Samarali kuchli nutqiy muloqot strategiyasi" tushunchasiga muloqot ishtirokchisining nutqiy muomala yo'nalishi kiritildi. Har qanday kommunikativ vaziyatda ham muloqot ishtirokchisi qisqa muddat ichida o'z maqsadiga erishish uchun muloqot prinsiplari, me'yorlari va qoidalarini ongli ravishda buzadi. Shuning uchun muloqot strategiyalarini ikki guruhga ajratamiz.

Kommunikantning kuchsiz nutqiy muloqot strategiyasi – u har qanday vaziyatda ham nutqiy muloqotning qoida va ma'yorlariga rioya qilishga urinadi.

Moslashuvchan nutqiy muloqot strategiyasi – dialogik diskursdan kelib chiqib, muloqot qoidalari va me'yorlarini qabul qilmaydi yoki ularga amal qilishga intiladi. Ko'rsatib o'tilgan strategiyalarda shaxslarning uchta tipi mos keladi, ya'ni avtoritar, liberal va demokratik. Nutq strategiyasini tashkil etuvchi elementlar argumentasiya (ishontiruvchi), motivasiya (yangilikka undovchi), baho beruvchi, hissiyotni ifodalovchi kabi harakat turlarini o'z ichiga oladi. Nutq egasining u yoki bu mexanizmi ijtimoiy me'yorlar, turli xil qadriyatlar tizimida birlashib, insonning nutqiy faoliyatidagi o'rnini belgilaydi.

Kommunikativ strategiyalar va taktikalar harakatlarning kognitiv rejasi hamda uning aniq amalga oshirilishi sifatida o'zaro bog'liqdir. Bu taktika milliy shartlanganlik bilan tavsiflanadi. Shunday qilib, interaksiya yoki dialogik diskurs – bu muayyan strategiya yoki ma'lum interaksonal intensiyaga xos ravishda nazoratda bo'lgan u yoki bu vazifaning yechimini o'z ichiga olgan nutqiy harakatlarning ketma-ketligidir. Strategiya so'zining leksik ma'nosi asosida ijtimoiy vaziyatga aloqador bo'lgan qarama-qarshilikni biror konfliktsiz yo'l bilan hal qilish g'oyasi yotadi. Mazkur tushunchaning psixologik tahlilida muloqot ishtirokchilarining o'zini tuta bilishi, vaziyatni keskin tus olishiga yo'l qo'yimaslik taktlari e'tiborga olinadi.

Kommunikativ strategiyalarda interaksonal intensiyalar yetakchi o'rinni egallaydi. Interaksonal intensiyalar – ma'lum bir maqsadga erishish uchun kommunikantlar tomonidan sodir qilinayotgan, muloqotning ijtimoiy me'yorlari aks etgan lisoniy harakatlar. Interaksonal intensiyalar deb kommunikantlarning ijtimoiy hodisalar kontekstidagi nutqiy strategiyasini ham aytish mumkin. Interaksonal intensiyalarning o'zaro hamkorligi orqali interaksiyalarning mazmuni aniqlanadi. Ya'ni shaxslararo muloqotning qaysi turi ekanligi: sharhlash (argumentatsiya), munozara, janjal va h.z.

Muloqotning har bir turi interaksiyalarni yuritish qoidalarining ketma-ketligi bilan aniqlanadigan interaksonal yo'nalishlarning ma'lum to'plami bilan ta'riflanadi. Bu qoidalar ijtimoiy konvensiyalar sifatida kommunikantlarning interaksiyalarini boshqaradi. Har bir kommunikant umumiy ko'rinishda o'z suhbatdoshini qanday qilib ma'lum harakatga undash, o'zining nuqtayi nazarini sharhlash, kerakli ma'lumotni ajratib olish, unga yuklanayotgan harakatni bajarishdan bosh tortishni va h.z.larni biladi.

Interaksiyalarni yuritish qoidalari kommunikantlar tezarusining, "kundalik (oddiy) bilimlar"ining bir qismiga kiradi, ya'ni barcha til egalari konvensial jihatdan turli strategik diskurslarning sxemalari ma'lum. Zamonaviy tilshunoslikka oid tadqiqotlarda strategik diskursning tipologiyasini tuzishga harakatlar amalga oshirilmoqda. Tipologik tadqiqotlarning maqsadi mazkur turdagi diskurs uchun maqbul yoki unga xos bo'lgan diskurs quriladigan dominant modelni aniqlashdan iborat. Diskurs turkumini (dialog mavzusini va nutqiy replikalar bilan almashinish dinamikasini) taksonomik belgilar sifatida qabul qilganda dialogik diskurslar quyidagicha farqlanadi:

1. Neytral dialog – sheriklar o'rtasidagi masofa saqlab qolingan suhbat;
2. Dialogik uyg'unlik (dialog-unison) – shaxsiy-maishiy mavzular bilan;
3. Dialog-munozara – neytral-abstrakt mavzu bilan;
4. Dialog-voqelik – sheriklar tomonidan emotsional jihatdan keskin his qilinadigan shaxsiy-kundalik mavzu bilan.

Ijtimoiy motivlarning to'rtta sinfidan kelib chiqqan holda ularga mos dialogik diskurs turlari ajratiladi: affilyativ, interpretasion, dialog-intervyu va instrumental. Agar dialogdagi ehtiyoj, ekspressiv makrointensiya bilan, ya'ni muloqot sherigini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan hamda muloqotni davom ettirish uchun ko'ngil ochar vositalar orqali muloqot sherigini qo'llab-quvvatlash bilan ifodalangan bo'lsa, unda dialogik diskurs affilyativ deb tavsiflanadi.

Interpretasion dialog koordinativ makrointensiyaning amalga oshiradi, unda subektning ehtiyoji uni sosiumda identifikatsiyalash va ajratib ko'rsatishlarida aks etadi.

Individning kognitiv ehtiyojining amalga oshirilishi natijasida dialog-intervyu, ya'ni evristik makrointensiya hosil bo'ladi. Sheriklar o'rtasidagi ma'lumotlarning mavjud emasligi dialog-intervyuning asosiy belgisi hisoblanadi. Faoliyatni me'yorga keltirishga ehtiyoj, dialog diskursning instrumental turining

asosida yotgan, muntazam makrointensiyada qayd etiladi. Mazkur turning illokutiv tarkibiga, odatga ko'ra, turli darajadagi imperativlikka undash kiradi.

Ijtimoiy tilshunoslikda dialogik diskurslarning tasnifi shaxsga yo'naltirilgan va mavqega yo'naltirilgan diskurslar bilan qarama-qarshilikda quriladi [1]. Birinchisida – muloqotda bir-birlarini yaxshi biladigan, tanish kommunikantlar ishtirok etadi, ikkinchisida esa – interaksiyada u yoki bu ijtimoiy guruh namoyondalari yuzlashadi.

Shaxsga yo'naltirilgan diskurs ikki xil ko'rinishda namoyon bo'ladi: maishiy va hayotiy diskurslar.

Maishiy diskurs – o'z-o'zidan aniq-ravshan kommunikativ vaziyat sababli sodir bo'layotgan holatni, faqatgina serqirra emotsional modal-baholash kvalifikatsiyasi jihatidan dolzarb sanalgan ma'lumotni yetkazish uchun vaqtni minimallashtirishga hamda muloqotning o'ziga xos qisqartirilgan kodiga chiqishga urinish bilan tavsiflanadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytish mumkinki, ma'lum sotsium me'yorlariga rioya qilgan holda amalga oshiradigan muayyan guruh a'zolarining nutqiy muloqoti mavqega yo'naltirilgan diskurs deyiladi. Muloqot samaradorligining zaruriy shartlardan yana biri – nutqiy muloqotning eng asosiy vositasi bo'lmish lisoniy til umumiylikiga ega bo'lishidir. So'zlovchi va tinglovchi o'rtasida til, ya'ni lisoniy umumiylikdan tashqari muloqotning nolisoniy omillardan foydalanishida ham umumiylik bo'lishi lozim. Muloqot shartlaridan yana biri – har ikkala tomonning muloqot jarayonida faolligi va bir-biriga ta'siridir. Suhbatdoshlardan biri, masalan, so'zlovchi faol bo'lib, tinglovchi passiv bo'lsa yoki tinglovchi ham so'zlovchi ham passiv bo'lsa, muloqot samarasiz yakunlanadi.

#### ADABIYOTLAR:

1. Абрамова Т.В. Диалогизм в прагмалингвистике и изучение речевого этикета // Теоретическая и прикладная лингвистика: Межвуз. сб. научн. тр. – Воронеж, 2002. – № 3.
2. Боймуродова Л. Сиёсий дискурда нутқий стратегия и фодаси (Х.Клинтон нутқлари асосида) // Иностранная филология: язык, литература, образование, 2021. – № 1 (78). – С. 138-143.
3. Эрназарова М. Грамматик маъно лисоний ва прагматик омиллар яхлитлигида. Филол. фан. д-ри (DSc) ... дисс. – Самарқанд, 2018. – Б. 15. <http://library.ziyouet.uz/ru/book/download/99327>
4. Натроева Н. Тилга антропоцентрик йўналишида ёндашув: фатика ва унинг хусусиятлари // Центр научных публикаций (buxdu.uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
5. Натроева Н. Илтифот ва унинг метакоммуникатив вазифалари // Центр научных публикаций (buxdu.uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
6. Махсудова М.А. Мuloqot психологияси. – Наманган, 2005. <https://uz.denemetr.com/docs/768/index-93638-1.html>;
7. Розикова Н. Жамият ижтимоийлашуви юзасидан олиб борилаётган ислохотларда мuloqotнинг психологик аҳамияти. <https://znanio.ru/media/zhamiyat-izhtimoijlashuvi-yuzasidan>
8. Сафаров Ш.С. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 318 б.
9. Слюсарев Н.А. Проблемы функционального синтаксиса современного английского языка. – М.: Наука, 1981. – 206 с.
10. Зернецкий П.В. Единицы речевой деятельности в диалогическом дискурсе // Языковое общение: Единицы и регулятивы. – Калинин: КГУ, 1997. – С. 148.
11. Шерба Л. В. Восточно-лужское наречие. Петербург, 1915, стр. 4.